



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 9-avgust

388-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 2-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Atoqli qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Ajiniyoz Qo‘shoy o‘g‘li tavalludining 200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” 2024-yil 16-iyuldagi PQ-258-son qarori ijrosi haqida” 355-6-0-Q/24–sonli qarori to‘g‘risida

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 2-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Atoqli qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Ajiniyoz Qo‘shoy o‘g‘li tavalludining 200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” 2024-yil 16-iyuldagi PQ-258-son qarori ijrosi haqida” 355-6-0-Q/24 –sonli qarorini ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 2-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Atoqli qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Ajiniyoz Qo‘shoy o‘g‘li tavalludining 200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” 2024-yil 16-iyuldagi PQ-258-son qarori ijrosi haqida” 355-6-0-Q/24 –sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-iyuldagi PQ-258-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Yozuvchilar uyushmalari, YuNESKO ishlari bo‘yicha milliy komissiya, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, Badiiy akademiya hamda jamoatchilik vakillarining Ajiniyoz Qo‘shoy o‘g‘li tavalludining 200 yilligini mamlakatimizda keng nishonlash to‘g‘risidagi takliflari ma‘qullanganligi;

Ajiniyoz Qo‘shoy o‘g‘li tavalludining 200 yilligini nishonlash bo‘yicha tashkiliy qo‘mita (keyingi o‘rinlarda - Tashkiliy qo‘mita) ilovaga muvofiq tarkibda tuzilganligi;

Tashkiliy qo‘mita (A. Aripov) bir hafta muddatda Ajiniyoz Qo‘shoy o‘g‘li tavalludining 200 yilligini nishonlash hamda uning ijodiy merosini keng targ‘ib qilish bo‘yicha quyidagi vazifalarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar dasturini tasdiqlanish hamda uning o‘z vaqtida, sifatli bajarilishini ta‘minlanishi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi (E.Ermirzayev) hamda Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (O.Qodirov)ga tumandagi o‘rta maxsus, professional, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari, mehnat jamoalari va mahallalarda taniqli yozuvchi va shoirlar ishtirokida Ajiniyoz

Qo'siboy o'g'li tavalludining 200 yilligiga bag'ishlangan uchrashuv va adabiy kechalar uyushtirish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov